



UDK:811.512

Umidaxon ASKAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: askarovau93@gmail.com

O'zMU dotsent v.b., PhD D.Bahriddinova taqrizi asosida

OZOD SHARAFIDDINOV ASARLARIDAGI SO'Z-KIRITMALAR

Annotatsiya

Biz mazkur ushbu maqolamizda bevosita O.Sharafiddinov asarlarida uchraydigan so'z-kiritmalarning gap strukturasidagi o'rni, funksiyasi, grammatik va semantik xususiyatlari tahlil etiladi. So'z-kiritmalarning asosiy gap bo'laklariga aloqadorligi, ularning gapda joylashuvi, izohlovchi funksiyasi va kiritilish shakllari nazariyalar hamda asarlardan olingan iqtiboslar orqali yoritilgan. Kiritmalar sintaktik parallelizm va semantik aniqlik nuqtayi nazaridan parallel va noparallel turlarga ajratilib, ularning o'ziga xos grammatik va stilistik jihatlari izohlangan.

Kalit so'zlar: Gap, so'z-kiritma, sintaktika, funksiya, parallel, noparallel, izohlovchi.

WORDS AND INSCRIPTIONS IN THE WORKS OF AZOD SHARAFIDDINOV

Annotation

In this article, we analyze the place, function, grammatical and semantic features of word-insertions in the sentence structure, which are directly found in the works of O.Sharafiddinov. The relationship of word-insertions to the main parts of the sentence, their location in the sentence, explanatory function and forms of insertion are covered through theories and quotes from works. Insertions are divided into parallel and non-parallel types from the point of view of syntactic parallelism and semantic accuracy, and their specific grammatical and stylistic aspects are explained.

Key words: Sentence, word-insertion, syntax, function, parallel, non-parallel, explanatory.

СЛОВА И НАДПИСИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЗОДА ШАРАФИДДИНОВА

Аннотация

В данной статье анализируются место, функция, грамматические и семантические особенности слов-вставок в структуре предложения, которые непосредственно встречаются в произведениях О.Шарафиддинова. С помощью теорий и цитат из произведений освещаются взаимосвязь слов-вставок с главными членами предложения, их расположение в предложении, пояснительная функция и формы вставки. С точки зрения синтаксического параллелизма и семантической точности вставки подразделяются на параллельные и непараллельные, а также раскрываются их грамматические и стилистические особенности.

Ключевые слова: Предложение, вставка слов, синтаксис, функция, параллельный, непараллельный, пояснительный.

Kirish. So'z-kiritmalar ko'proq asosiy gapdagi substantiv elementlarga (keng ma'noda) aloqador bo'lib, odatda, gap strukturasida ichidan o'rin oladi. O'zbek tilida ularning gapning kesimiga (harakat anglatuvchi so'zlarga) oid bo'lib, gap oxirida kelishi, shuningdek, butun gap mazmuniga bog'liq bo'lish hollari kam uchraydi, gap strukturasidan tashqarida o'rinishi esa deyarli uchramaydi.

So'z-kiritmalarning gap sostavida ayrimligi, alohidaligi — ajralib turishi gap-kiritmalarga nisbatan ma'lum darajada kuchsizroqdek tuyuladi. Buni so'z-kiritmalarning tuzilish va hajm jihatdan sodda va ixchamligi hamda asosiy gap sintaktik strukturasida intonatsiyasini uzib qo'yish vaqti (masofasi) gap-kiritmalarga qaraganda qisqa bo'lishi bilan izohlash mumkin. Binobarin, so'z-kiritmalar gap intonatsiyasidan asosan ritmik jihatdan va nisbatan qisqaroq pauzalar orqali ajralib turadi.

So'z-kiritmalar gap strukturasiga kirish so'z va kirish gaplar, bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi so'zlar bilan birgalikda kiritilishi, ba'zan esa sifatlovchilar bilan kengayib kelishi, hatto izoh komponentga ega bo'lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kirish bo'laklar mavzusida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham olib borilmoqda. Jumladan, D.Xudoyberganovning "Badiiy matnda kirish va

kiritmalarning qo'llanishi" maqolasini misol keltira olamiz. Mazkur maqolada T.Malikning mashhur asarlaridan biri "Shaytanat: asarida qo'llanilgan kirish va kiritma kengaytiruvchilarning stilistik va semantik jihatdan o'rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda mazkur kengaytiruvchilarning badiiy asardagi funksional imkoniyatlari kengroq ko'lamda o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot manbasi sifatida Ozod Sharafiddinovning "Birinci mo'jiza" hamda "Ijodni anglash baxti" asarlari tanlab olindi. Mazkur maqolada bevosita so'z-kiritmalarning gap strukturasidagi o'rni, funksiyasi, grammatik va semantik xususiyatlari o'rganildi.

Tahlil va natijalar. So'z-kiritmalar grammatik belgisi jihatdan mustaqil so'zlar sifatida ham, biror gap bo'lagi shaklida ham keladi. Biror gap bo'lagi belgisida kelmagan so'z-kiritmalar gap bo'laklari bilan mazmunan kuchsiz bog'lanishda bo'lib, odatda, yordamchi funksiyani bajaradi. Bularga manba ko'rsatuvchi kiritmalarni ko'rsatish mumkin. Bunday kiritmalarning kiritilganligi aniq ko'rinib turadi.

So'z-kiritmalar gapdagi biror so'z birikmasiga aloqador bo'lganda esa bu so'z birikmasi odatda, yaxlit bir tushunchani anglatadi. Biror narsa yoki hodisani uning belgisi, sifatini tasvirlash, o'xshatish yoki predmet va uning belgisi, xususiyati o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish orqali ifodalagan bo'ladi.

Soʻz-kiritma esa oʻsha narsa yoki hodisaning asosiy atamasi (termini) sifatida kiritiladi. Bunday soʻz-kiritmalar koʻproq ilmiy va ijtimoiy-publististik uslubda qoʻllanadi: Hatto, Pushkinday shoir ham qator sheʼrlarida goʻzallik koʻchasiga yaqin yurolmaydiganlarni “avom” (“chern”) deb atab, ularga nafratini izhor qilgan edi.[Ijodni anglash baxti: 15] Uning yonidagi uchta qora kursiga esa shundoq ishonchsiz odamga tavsiya bergani uchun Homil Yoqubov, Oybek va Abdulla Qahhor oʻtkaziladi. Shu yoʻl bilan (buni ruslar “shantaj” deb ataydi) zoʻr-zoʻr yozuvchilarning tili qisib olinadi.[Ijodni anglash baxti: 301] Umuman, Shayxzodaning lirik sheʼrlarida boʻlsin, epik xarakterdagi dostonlarida boʻlsin va liro-epik asarlarida boʻlsin (balladalar, qator manzumalar) tarixiyat (istorial) ipi doimo choʻzilib kelib, uning ijodiy metodi uchun xarakterli bir xususiyatni tashkil etadi.[Birinci moʻjiza: 315] U insonning feʼl atvori, eʼtiqodlari, ruhiy olami haqida bahs yuritadi, uning siyrati va suvratini, yuragining kardiogrammasini (urishini), qalb manzaralarini chizadi.[Ijodni anglash baxti: 351]

Shuni ham aytish kerakki, kiritma vazifasida qisqartma soʻzlar kelganda ular, odatda, birorta soʻzni emas, balki yaxlit bir tushunchani ifodalovchi turgʻun bogʻlanmalarni izohlaydi. Masalan: Shu yili fevral oyida Ilich, Nadejda Konstantinovna va Inessa Armandning kichik qizi bilan Oliy badiiy texnika masterskoyining (VXUTYEMAS) yotoqxonasiga borishadi.[Birinci moʻjiza: 39]

Gap boʻlagi shaklida kelgan soʻz-kiritmalar odatdagi gap boʻlaklaridan shu gap strukturasida oʻrinlashishi bilan ajralib turadi. Ularning oʻrni, maʼnosi va funksiyasi odatdagi gap boʻlagi boʻlib kelganda olishi mumkin boʻlgan oʻrindan, pozitsiyadan, maʼno va funksiyadan farq qiladi, bu oʻrinda ifodalagan maʼno doirasi, funksiyasi nisbatan mustaqil boʻladi. Soʻz-kiritmalar koʻpincha gapning biror boʻlagi (soʻz yoki soʻz birikmasining) maʼnosini, toʻgʻri yoki koʻchma, lugʻaviy, konstruksial maʼnosini izohlab, aniqlab, tushuntirib kelishi yoki ular bilan bogʻliq ayrim qoʻshimcha maʼlumotlarni (narsa yoki hodisaning belgi-xususiyatlari, holati va xarakteri kabi) koʻrsatib kelishi mumkin. Masalan: Bunday shoirlar va yozuvchilar oʻsha yillarda proletar yozuvchilaridan farq qilaroq, poputchiklar (hamrohlar) deb atalardi.[Birinci moʻjiza: 104]

Yuqorida keltirilgan gapda adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinov poputchiklar soʻzini keltirib, ushbu soʻz bizga unchalik ham tanish boʻlmaganligi sababli bizga tushunarli boʻlgan maʼnosini izohlab, aniqlab va tushuntirish uchun kiritma soʻz yaʼni hamrohlar soʻzini keltirib oʻtgan.

Hamrohlar soʻzi soʻz-kiritma sifatida kiritilib, gap boʻlagini izohlab, aniqlab kelganda izohlanayotgan poputchiklar soʻzidan keyin oʻrinlashgan. Bu tipdagi soʻz-kiritmalar uchun qoʻshimcha maʼlumot, yordamchi fakt ifodalash, gap mazmunini rivojlantirish asosiy funksiya hisoblanmaydi. Gap boʻlagini izohlab, aniqlab kelgan hamrohlar soʻz-kiritmasi, oʻsha izohlanayotgan poputchiklar soʻzining paralleli, sinonimi, varianti, dubleti yoki tarjimai sifatida kiritilgan. Ushbu mulohazalardan koʻrinib turganidek Ozod Sharafiddinovni qanchalik soʻz lugʻatining kengligini hamda soʻz qoʻllash mahoratiga qoyil qolmasdan iloji yoʻq. Chunki yuqoridagi gapda bizga unchalik ham tanish boʻlmagan poputchiklar soʻzi bizga tushunarli boʻlmaganligi sababli ushbu soʻzni maʼnosini izohlab, aniqlab va tushuntirish uchun kiritma soʻz yaʼni hamrohlar soʻzini keltirib oʻtgan.

Demak, ularni gap boʻlagi singari shakllangan holda kelishi jihatdan ham oʻzlari aloqador soʻz yoki soʻz birikmalariga parallel hisoblash mumkin.

Shuningdek, izohlanayotgan gap boʻlagi bilan bogʻliq qoʻshimcha maʼlumot, uning belgi xususiyatlari, xarakteri kabi yordamchi fakt ifodalab kelgan soʻz-kiritmalar esa, odatda,

oʻsha gap boʻlagining paralleli (sinonimi, varianti yoki tarjimai) sifatida kiritilmaydi. Ular izohlanayotgan gap boʻlagiga nisbatan boshqa bir gap boʻlagi funksiyasida va shaklida kelgan boʻladi: Lirik sheʼrlarda shunday bir pryom bor: shoir biron predmetni oladi (majnuntol, daryo, bulut, shalola, koʻprik, chinor va h.k.).[Birinci moʻjiza: 197]

Koʻrinadiki, yuqoridagi gapda izohlanayotgan gap boʻlagiga parallel boʻlib kelgan soʻz-kiritmalar bilan uning (gap boʻlagining) paralleli sifatida kelmagan soʻz-kiritmalar bir muncha xususiyatlar — izohlanayotgan soʻz yoki soʻz birikmasiga nisbatan anglatgan maʼno doirasi, funksiyasi, grammatik shakllanishi, oʻrni va pozitsiyasi kabi jihatlari bilan bir-biridan maʼlum darajada ajralib turibdi.

Shunga koʻra, soʻz-kiritmalarni (bu birikma-kiritmalarga ham taalluqli) ikki asosiy gruppaga ajratib oʻrganish mumkin: 1) izohlanayotgan gap boʻlagining paralleli sifatida kelgan soʻz-kiritmalar (parallel soʻz-kiritmalar); 2) izohlanayotgan gap boʻlagining paralleli sifatida kelmagan soʻz kiritmalar (noparallel soʻz-kiritmalar).

Parallel soʻz-kiritmalar bevosita oʻzlari tegishli boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmasidan keyin (postpozitiv, kontakt holda) oʻrinlashadi. Koʻpincha gapning qaysi boʻlagiga aloqador boʻlsa, u bilan bir xil grammatik koʻrsatkichga ega boʻladi (ayrim hollarda kelishik qoʻshimchasi oʻrnida koʻmakchilar qoʻllanishi mumkin).

Shuningdek, soʻz-kiritma izohlanayotgan soʻzga nisbatan kengroq yoki, aksincha, torroq maʼnoni anglatib, shunga mos keladigan bogʻlovchi yoki yordamchi soʻzlar (asosan, xususan, jumladan, umuman, toʻgʻrisi, yaʼni, demak, binobarin kabilar) bilan birga qoʻllanadi: Binobarin, adabiy aloqalar va adabiy taʼsirlar masalasining marksizm-leninizm taʼlimoti asosida chuqur hal qilinishi juda katta xalqaro ahamiyatga ham molikdir.[Birinci moʻjiza: 65]

Ushbu gapdagi kiritma izohlanayotgan soʻz yoki soʻz birikmasiga baʼzan leksik-semantik parallel boʻlmasa ham, sintaktik jihatdan parallel hisoblanadi. Bu tipdagi kiritmalarni gapning ajratilgan boʻlaklaridan chegaralash bir muncha qiyin. Ularni gap boʻlagi sifatida ham qoʻllab, yozuvda vergul yoki bir tire bilan berish ham mumkin. Bu ularning uyushiq va ajratilgan boʻlaklar xarakteriga ega boʻlishidan kelib chiqadi. Bunday kiritmalar nisbatan kam uchraydi.

Soʻz-kiritmalar gap strukturasida bilan murakkab aloqadorlikda boʻlib, parallel va noparallel shakllarda namoyon boʻladi. Parallel kiritmalar oʻzlari izohlayotgan soʻz yoki soʻz birikmasining leksik yoki sintaktik paralleli boʻlib, gap boʻlagining oʻziga xos turlanishini hosil qiladi. Noparallel kiritmalar esa izohlovchi, aniqlovchi, tushuntiruvchi vazifani bajaradi, ammo izohlanayotgan birlik bilan toʻgʻridan-toʻgʻri grammatik muvofiqlikka ega boʻlmaydi. Maqolada Ozod Sharafiddinovning asarlaridan olingan misollar orqali kiritmalarining stilistik funksiyalari, gapdagi oʻrni va u bilan birga keladigan yordamchi soʻzlar (masalan, yaʼni, demak, binobarin) orqali semantik kengayishi tahlil qilingan. O.Sharafiddinov kiritma-soʻzlardan samarali foydalangan boʻlib, ularni gap ichida va gap oxirida keltiradi. Bu esa muallif fikrining aniqligi va ifoda uslubining qiziqarli boʻlishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Oʻzbek tilidagi soʻz-kiritmalar gap strukturasining mazmuniy va grammatik aniqligini taʼminlovchi muhim til birliklaridan hisoblanadi. Ular gapning asosiy boʻlagi yoki yordamchi elementi sifatida qatnashib, matn mazmunini boyitadi, tushunarli va ifodali qiladi. Soʻz-kiritmalar ikki shaklda — parallel va noparallel tarzda qoʻllanib, izoh, tarjima, sinonim yoki qoʻshimcha maʼlumot berish orqali gapdagi boshqa boʻlaklar bilan semantik aloqaga kirishadi.

Maqolada adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinovning matnlari misolida so'z-kiritmalarning stilistik imkoniyatlari yoritildi. Uning asarlarida kiritmalar o'rinli va mahorat bilan qo'llanib, o'quvchiga muallif fikrini aniq va tushunarli

yetkazishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qisqartmalar va bog'lovchi so'zlar bilan kelgan kiritmalar matn semantikasini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Askarova U. Ozod Sharafiddinov asarlarining sintaktik xususiyatlari. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Toshkent, 2022.
2. Askarova, U. (2025). Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). Farg'ona Davlat Universiteti, 31(1), 83. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/5320>
3. Askarova U. (2025). Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). Farg'ona Davlat Universiteti, 31(3), 130.
4. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. — Toshkent, 2009.
5. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining til xususiyatlari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. — Toshkent, 2010.
6. Qosimova X. Turli tizimdagi tillarda kirish bo'laklar va ularni ifodalovchi sintaktik vositalar. "PEDAGOG" jurnali. — Toshkent, 2024.
7. Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. — T.: Fan, 1976.
8. Xudayberganova D. Badiiy matnda kirish va kiritmalarning qo'llanishi. "Tamaddun nuri" jurnali. — Toshkent, 2024.
9. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi O'zbek adabiy tili. — T.: Fan, 1966.
10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — T.: "Sharq", 2004.
11. Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. — T.: Adabiyot va san'at, 1979.